


«TASDIQLAYMAN»

« KATTAQO'RG'ON SHAHAR
MAKTABGACHA TALIM BO'LIMI »



Bajaruvchi tashkilotni tanlab olish uchun

TANLOV XUJJATLARI

Kattaqo'rg'on -2022

Tanlov xujjatlarining mazmuni:

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma**
- II. Texnik qism**
- III. Narxlar qismi**

TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1. TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

1. Tanlov predmeti: Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha talim bo'limiga qarashli MTtlarning жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун қурилиш моллари билан таъминлаш

1.2. Tanlov qiymati 13 000 000 (ўн ўч миллион) so'm . Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagi takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Maxsulot bo'yicha Texnik topshiriq tanlov xujjatlarining texnik qismda ilova qilingan.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 2022 yil 31 dekabrgacha

1.5 Ishlarni boshlash muddati– avans mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab xisoblanadi.

2. TANLOV TASHKILOTCHILARI

2.1. Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha talim bo'limi (bundan keyin-"Buyurtmachi" deb ataladi) -tanlav tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili:, Kattaqo'rg'on shahar "Semrug' ko'chasi 7-uy

El.adres:

2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi

2.3. Tanlov Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha talim bo'limi - "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. TANLOV ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, kamida 5 yil tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar quyiladi:

tanlov predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi aylanma mablag'larining yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, soliq idoralaridan qarzdorligi mavjud emasligi yoki xizmat ko'rsatuvchi bankda inkassalar va xar xil turdagi qarzdorliklari yo'qligi to'g'risida bank ma'lumotnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mexnat resurslaridan, 10 tadan ortiq malakaviy ishchilarning va mutaxassislarining mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

tanlov ob'ektiga o'xshash ob'ektlarda ishlash tajribasining mavjudligi; faoliyati davomida kamida 15 tadan ortiq budjet tashkilotlarida faoliyat olib borganligi xamkorlikda ishlaganligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar; (bajarilgan ishlar to'g'risidagi schot-fakturalar, protsentovkalar, dalolatnomalar va shunga uxshash boshqa xujjatlardan nusxalar)

tanlov ob'ektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (50 foizdan kam bo'lmagan xolda);

bugungi kungacha jami aylanma mablag'lari to'g'risidagi bank ma'lumoti bo'yicha solishtirilishida nisbatdan ortiqqligi; yillik soliq xisobotlarida asosiy vositalaridan (yuk avtomobili va boshqalar)ning mavjudligi, moliyaviy natijalari va yillik balans xisobotidan nusxalar taqdim etishi lozim;

Nizom mablag'i miqdori.

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Qo'yidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi: qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar, hamda ushbu xujjatning 3.2 bandiga mos kelmagan ishtirokchilar.

4. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAKDIM ETISH

4.1. Ishtirokchilar o'z takliflarini elektron ko'rinishda (etender.uzex.uz) portaliga elektron tanlovlarni o'tkazish uchun joylashtirishli lozim.

4.2. Tanlov uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va xujjatlar, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" ixtiyoriga ko'ra o'zbek yoki rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.3. tanlov xujjatlarida quyidagilar taqdim etilishi lozim:

- Texnik qism, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablarni va bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;

- Narxlar qismi, Tanlov shartlarida belgilangan narxlar doirasida, xizmatlarni bajarish muddatlari va boshqa bog'liq ko'rsatkichlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Tanlov ishtirokchilari xar bir takliflarni yaxlit xolda tikilgan, nomerlangan, vakolatli shaxs imzosi va muxr bilan tasdiqlangan holda yoki xar bir varag'ini muxrlab tasdiqlangan holda takdim etishlari lozim.

4.4. Quyidagi xujjatlar to'liq bo'lishi talab etiladi:

Texnik va narxlar bo'yicha quyidagi takliflar:

- Texnik xujjatlar ruyxati (bajarilishi lozim bo'lgan joriy ta'mirlash ishlari to'g'risidagi xujjatlar ro'yxati ilova qilinadi);

4.5. Tanlov ishtirokchisi:

-faqat bitta taklif berishi mumkin;

- taqdim etilayotgan xujjatlarning haqiqiyli va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladi;

- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

5. TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH MUDDATINI UZAYTIRISH

5.1. Xarid komissiyasi tanlov uchun takliflarni qabul qilish muddatini barcha ishtirokchilar uchun taa'luqli holda e'lon qilingan muddatdan yana 5- kalendar kunga uzaytirishi mumkin.

5.2. Takliflar muddatini uzaytirilishi faqat xarid komissiyasi yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

5.3. Tanlov muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror maxsus axborot portalida joylashtirilishi lozim.

6. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

6.3. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni haqiqiyli va to'g'riligiga javobgardir. G'olib ishtirokchi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishga majburdir.

7. BOSHA SHARTLAR

7.1. Davlat buyurtmachisi tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran

kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

7.2. Tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlov hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.


7.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

7.4. Tanlovning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

7.5 Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi

Краска эмаль (оқ.жигар.қизил.яшил.қўк.сарик) 240 кг

Водозэмульсия 1000 кг



Kattaqo‘rg‘on shahar

“ ” _____ 2022 yil

NUQSON DALOLATNOMA № 8

Ushbu dalolatnomani tuzib imzo chekuvchilar, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar Maktabgacha ta‘lim bo‘limi Maxsus-ta‘mirlash ekspluatatsiya guruhi boshlig‘i E.Raximov, bino-inshootlar qurilishi va jihozlash bo‘yicha muhandis B. Normamatov va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari M.Igamovlar Maktabgacha ta‘lim bo‘limiga qarashli maktabgacha talim tashkilotlarining 2022 yilda joriy ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo‘ladigan qurilish materiallari to‘g‘risida tuzildi.

№	Qurilish xom-ashyolari nomi	O‘lchov birligi	miqdori
1	Emulsiya 25 kg	Dona	40
2	Kraska (xar hil rangda 3 kg)	Banka	80
3	Shpatlevka 25 kg	Dona	40
4	Sement	Kg	4600
5	Ohak	Kg	1000
6	Shifer	Dona	100
7	Shisha (oyna)	kv.m	100
	Jami		

**Maxsus-ta‘mirlash ekspluatatsiya
gurugi xizmat boshlig‘i:**

E. Raximov

**Bino-inshootlar qurilishi va jihozlash
bo‘yicha muhandis:**

B. Normamatov

Xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari:

M. Igamov